



SOVETLARNING TURKISTON ASSR BOSHQARUV TIZIMIDA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI

To'xtasinov Muhammadjon G'ulomjon o'g'li

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada sobiq sovetlar davrida Turkiston ASSR boshqaruvi tizimidagi rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va bu muammoni yechishda Sho'rolar davlatining tutgan bir yoqlama siyosati tahlil qilingan bo'lin, ushbu masala bo'yicha fikr-mulohalar ilgari surilgan.

Tayanch so'z va iboralar: boshqaruv tizimi, O'rta Osiyo universiteti, kadrlar tayyorlash, partiya yakkahukmronligi, Turkiston fronti Inqilobiy harbiy kengashi, kadrlar safarbarligi, kadrlar ta'minoti.

Turkiston boshqaruv tizimiga yevropalik kadrlarning safarbar etilishining asosiy yirik sabablaridan biri o'lkada kadrlarning yetishmasligi edi. Boshqaruv tizimidagi kadrlar yetishmasligi esa bu davrda o'lkada kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi. Har qanday tuzumda bo'lgani singari, sovet hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari va ideallari ruhida tarbiyalangan, unga sadoqat bilan xizmat qiladigan ko'plab kadrlarga ehtiyoj sezardi. 1920-yil sentabrida Toshkentda tashkil etilgan Turkiston Davlat universiteti shu maqsadga yo'naltirilgan edi. Shuni ta'kidlash kifoyaki, 1921-yilda Turkiston Davlat universitetida talabalarining ikki ming kishilik tarkibidan faqat 14 nafar mahalliy aholi orasidan chiqqanlar edi. Yuqorida aytilganlar bilan bir qatorda, o'quv-tarbiya ishlarining haddan tashqari siyosiy tusda bo'lishi tajribasi uzoq muddatga cho'zilgan salbiy oqibatlariga olib kelgan. Keyinchalik O'rta Osiyo universiteti maqomini olgan bu oliygoh professor-o'qituvchilarining mutloq tarkibi yevropalik millat vakillaridan tashkil topganligidan¹, undagi o'qitish tizimi birinchi kundanoq faqat rus tilida olib borilgan. Bu esa mahalliy millat yoshlari uchun unga kirib ta'lim olishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirardi. Shuning uchun ham universitet talabalari safida ularning salmog'i juda ozchilikni tashkil etardi. 1924-yilda universitetda 2259 talaba o'qigan bo'lsa, ular orasida mahalliy millat vakillari juda ozchilik iborat edi. Boshqa yuqori toifadagi o'quv yurtlarining ko'pchiligida ham o'qitish faqat rus tilida olib borilgan. Bu hol ularga sinfiy mahalliy andozalarga mos keladigan mahalliy millatlar vakillarini jalb qilishga jiddiy ravishda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun milliy kadrlar tayyorlash Turkiston uchun juda dolzarb muammo bo'lgan. Buni 1922-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan quyidagi ma'lumotlardan bilsa bo'ladi. Turkiston Muxtor respublikasining 28 ta xalq komissarligida va organlarida 4490 kishi faoliyat yuritgan bo'lsa, ular orasida o'zbeklar 3,3 foiz ni tashkil etgan xolos².

A.Yermetov kadrlar yetishmasligi muammosi TASSR nazorat organlarida ham yirik muammo bo'lganligini qayd etadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Turkiston ASSR IIHQ 1918-yilning birinchi yarim yilligi uchun Butunrossiya MIQ ga topshirilgan hisobotida "militsiya safini va boshliqlarini malakali kadrlar bilan to'ldirish va buning uchun maxsus kurslar tashkil etish zarurligi"ni alohida ta'kidlab o'tilgan edi. Shu munosabat bilan Turkiston ASSR XKS 355-sonli

¹ Bundan avval 1918-yilda tashkil etilgan Turkiston xalq universitetida ham ahvol shunday edi. Batafsil ma'lumot uchun qarang: Ўзбекистон ССР тарихи. И.М.Мўминов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1974. – Б. 249.

² Раҳмонқулова А.Х. Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий ҳаёт (20-йй.): тар. фан. ном. дис... – Т., 1995. – Б. 40.



buyruq chiqarib (1918-yil 2-noyabr), uchastka militsiya rahbarining saylovini bekor qilgan. Shu paytdan e'tiboran "ular saylanmaydigan, balki tayinlanadigan bo'ldilar". Bu ham partiya yakkahukmronligini ta'minlashga qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri bo'lgan. Endilikda uchastka militsiya boshliqlari ham bevosita partiyaga sodiq bo'lgan kadrlar bilan to'ldirila boshlangan³.

Ammo nazorat organlaridagi kadrlar tizimida amalga oshirilgan bu kabi qator o'zgartirishlar rejalashtirilgan samarani bermadi, sababi militsiya boshliqlarining aksariyati militsiya sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo'lmagan kadrlardan tashkil topgan edi. Aslida, avval militsiya boshliqlariga maxsus kurslar tashkil etib, ularning savodini har tomonlama oshirish zarur edi, lekin bu masala e'tibordan chetda qolib ketdi. Mazkur muammo IIHQ tomonidan Turkiston fronti Inqilobiy harbiy kengashiga 1920-yil 26-iyunda topshirilgan hisobotda tahlil qilindi va Militsiya boshlig'i lavozimini egallashga "qodir" kadrlarni tayyorlaydigan kurslarni tashkil etish xususida qaror qabul qilindi. Kurslar ikkita: umumiy militsiya (3 oylik) va maxsus jinoiy qidiruv (2 oylik) yo'nalishidagi bo'limlardan iborat bo'ldi. Maxsus bo'limga umumiy kurslarni muvaffaqiyatli tugatgan xodimlar qabul qilinardi. Birinchi guruhga kirgan xodimlar barcha masalarni mustaqil ravishda hal qila oladigan kadrlar deb topilib, militsiya sohasidagi yuqori, ya'ni shahar va uyezd militsiya boshlig'i lavozimiga tayinlanish huquqiga ega bo'ldilar. Ikkinchi guruh kursantlari rayon militsiya boshlig'i yordamchisi lavozimidan yuqori mansabni egallay olmasdilar. Uchinchi guruh kursantlariga militsiya sohasidagi past lavozimlarni egallash huquqi berildi. Kurslarni 30 ta musulmon va 9 ta rus militsiya xodimi tugatgan bo'lsada, ularning tayinlanish huquqiga ega bo'lgan mansablarni egallashi masalasi ijobiy hal qilinmadi. Chunki bolsheviklar partiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar bunga har tomonlama to'sqinlik qilardi.

Vaqt o'tishi bilan militsiya kadrlarini o'qitish va tayyorlash vositalari o'zgarib borgan. Turkiston militsiyasining boshqaruv organlari asosan RSFSR (Petrograd, Omsk, Novochoerkassk)dagi maktablarda ta'lim olgan kadrlar hisobiga to'ldirilgan bo'lib, buning asosiy sababi militsiya boshliqlarini tayyorlaydigan maktablar Turkistonda tashkil etilmagan edi.

Keyinchalik milliy respublikalar hududida qisman bo'lsa ham boshqaruv ishlari uchun kadrlar tayyorlaydigan kurslar tashkil etilgan. Masalan, 1929-yilda militsiya, jinoyat qidiruv va qamoqxonalardagi boshqaruv lavozimlariga xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha bir yillik kurslar tashkil etildi. Ishchi-dehqon militsiyasining past boshqaruv tarkibi va oddiy xodimlarni tayyorlashda ham ayrim e'tiborga molik ishlar amalga oshirilgan bo'lib, respublika hududlarida 4 oylik kurslar tashkil etildi. Maxsus kurslarda ham asosan yevropalik millat vakillari o'qitilib, boshqaruv ishlariga tayinlangan.

Militsiya organlarining shaxsiy tarkibini mustahkamlash borasida olib borilgan ishlarga qaramay, 1930-yillarning boshlarida militsiya boshqaruv apparatini malakali kadrlar bilan ta'minlash muammo bo'lib qolavergan. O'zbekiston SSR Davlat siyosiy boshqarmasi boshlig'i yordamchisi bo'lgan Antonichev tomonidan O'zSSR KP MQ ga topshirilgan maxsus (1933-yil 11-oktyabr) dalolatnomada: "...militsiya boshqaruv apparatidagi tartibsizliklar haqida to'xtalib, bir yilda (1932-1933-yillar) respublika miqyosida 208 nafar militsiya boshliqlari o'z lavozimlaridan bo'shatilib, ulardan 127 nafari javobgarlikka tortilganini ta'kidlash kifoya... Shu munosabat bilan viloyatlarda militsiya faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish uchun boshqaruvda malakaga ega bo'lgan o'zbek millatiga mansub 25 nafargacha xodimlarni rayonlarda tegishli

³ Ерметов А.А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатиш ишидаги ўрни(1918-1924 йй.): тар. фан. ном. дис... – Т., 2006. – Б. 111.



lavozimlarga tayinlash uchun yuborish zarur, – deb ta’kidlanadi”⁴. Ichki ishlar organlari tizimi boshqaruv bo‘g‘inlaridagi rahbarlik lavozimlariga ham asosan yevropalik vakillarning tayinlanishi respublika boshqaruvidagi nomutanosibliklarni yuzaga keltirgan.

B.M.Burxonov kadrlarni tayyorlashda bir qancha xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligini ta’kidlab, birgina ishlab chiqarish sohasiga tayyorlangan kadrlarning ham aksariyatini yevropaliklar tashkil etganligini qayd etadi. “Shu sababli ham, - davom etadi B.M.Burxonov, - rus millatiga mansub kadrlar ana shu davrda O‘zbekistondagi ixtirochi va ratsionalizatorlarning asosiy qismini tashkil etgan. Ularning ko‘plari, jumladan, M.Shogaev, N.Rezunenko, I.Kuznenko, V.Milyunin va boshqalar ishlab chiqarish rahbarlari bo‘lib yetishdilar”⁵. Sanoatning boshqa qator tarmoqlari uchun malakali bo‘lgan rahbar kadrlarni Moskva, Leningrad va boshqa sanoat shaharlaridan olib kelish yoki ishchilarni markaziy rayonlarga o‘qishga yuborish bilan hal etib borilganligi⁶ hali ham kadrlar muammosi jiddiy muammo bo‘lib qolaverganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo‘lsak, milliy respublikalar ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida boshqaruv tizimida kadrlar taqchilligi ko‘zga tashlanadi. Turkistondagi boshqaruv tizimiga kadrlar safarbarligi 1918-1919-yillari sovet hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, 1920-yil ikkinchi yarmidan keyingi “kadrlar ta’minoti”ga asosiy sabab bo‘lib, Volgabo‘yi va Uraloldi hududlaridagi ocharchilikdan qutulish bo‘lgan.

Markaz keyingi yillarda ham o‘z manfaatlarini yo‘lida bolsheviklar partiyasiga sodiq bo‘lgan kadrlarni o‘lka boshqaruv organlariga uzluksiz tarzda safarbar etgan. Bu safarbar qilinganlarning asosiy ko‘pchiligini yevropalik millat vakillarini tashkil etilgan bo‘lib, biz buni jamiyat hayotining barcha sohalarida kuzatishimiz mumkin. Bu holatning asosiy va ayni vaqtda tabiiy sabablaridan biri sifatida o‘lkada kadrlar tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi bilan ham ifodalash mumkin. Keyinchalik kadrlar tayyorlash bo‘yicha ma’lum bir ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, lekin o‘qitishda rus tilidan keng foydalanish mahalliy millat vakillaridan kadrlarning kam tayyolanganligini ko‘rsatadi. Rahbarlik lavozimlariga asosan ishchilar ko‘tarilgani holda boshqa qatlam vakillariga e’tibor berilmagan.

Adabiyotlar:

1. Бурхонов Б.М. Ўзбекистон халқ хўжалигини раҳбар ходимлар билан таъминлаш: тажриба ва сабоқлар(20-30 йй.): тар. фан. ном. дис... – Т., 1994.
2. Ерметов А.А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатиш ишидаги ўрни(1918-1924 йй.): тар. фан. ном. дис... – Т., 2006.
3. Раҳмонқулова А.Х. Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий ҳаёт (20-йй.): тар. фан. ном. дис... – Т., 1995.
4. Ўзбекистон ССР тарихи. И.М.Мўминов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1974.

⁴ Ерметов А.А. Совет миллий сиёсати ва Ўзбекистон Ички Ишлар органларининг таркибий тузилиши. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман. – Тошкент; 17-18 сентябрь 2010 йил. – Б. 258-259.

⁵ Qarag‘ang: Бурхонов Б.М. Ўзбекистон халқ хўжалигини раҳбар ходимлар билан таъминлаш: тажриба ва сабоқлар(20-30 йй.): тар. фан. ном. дис... – Т., 1994. – Б. 88.

⁶ Ўзбекистон ССР тарихи. И.М.Мўминов таҳрири остида. – Т.: Фан, 1974. – Б. 513., www.ref.uz/download.php?id=10709